



Artistic and psychological interpretation of the hero's psyche in the works of Nazar Eshonkul

Sitora TOSHMAMATOVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

25 September 2024

Keywords:

human psyche,
inner experiences,
vengeful woman,
hatred,
character,
motive,
nationalism,
Nazar Eshonkul,
story,
modernism,
psychologism.

ABSTRACT

This article explores the human psyche and inner emotions in the stories of Nazar Eshonkul, particularly focusing on feelings of patience, hatred, and revenge in the female character. Through an analysis of the author's story "The Wind Cannot Be Caught," the article examines the complexities of the human psyche, inner experiences, and the portrayal of a vengeful female character.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp394-397>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nazar Eshonqul asarlarida qahramon ruhiyatining badiiy-psixologik talqini

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

inson ruhiyati,
ichki kechinmalar,
qasoskor ayol,
nafrat,
xarakter,
motiv,
milliylik,
Nazar Eshonqul,
hikoya,
modernizm,
psixologizm.

Ushbu maqolada Nazar Eshonqul hikoyalaridagi inson ruhiyati va ichki his-tuyg'ulari, ayol xarakteridagi sabr, nafrat va qasos tuyg'ulari tasviri haqida so'z yuritiladi. Adibning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi tahlili asosida inson ruhiyati va ichki kechinmalari, qasoskor ayol xususiyati tavsiflanadi.

¹ Teacher, English Language Teaching Methods, Fergana State University.

Художественно-психологическая интерпретация психики героя в произведениях Назара Эшонкула

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

человеческая психика,
внутренние переживания,
мстительная женщина,
ненависть,
персонаж,
мотив,
национализм,
Назар Эшонкул,
история,
модернизм,
психологизм.

В данной статье рассматриваются особенности человеческой психики и внутренних переживаний в рассказах Назара Эшонкула, с акцентом на такие чувства, как терпение, ненависть и месть в женских характерах. На основе анализа рассказа автора «Ветер не поймать» описывается мстительный женский персонаж, раскрывая глубину его психики и эмоциональных переживаний.

Inson tafakkurining yangilanishida, insonlarga go'zallik ulashishda, hayotni badiiy bo'yoqlarda ask ettirishda, uning ongiga ma'lum bir g'oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchilik imkoniyatga ega emas. Ijodkor o'z ongida tafakkur qilgan dunyosini, o'y-xayollarini o'quvchi ko'z o'ngida qayta voqealantirishga intiladi.

O'zbek adabiyotining o'ziga xos uslubga, yo'nalishga ega bo'lgan ijodkorlardan biri Nazar Eshonquldir. Ushbu adib modernistik ijodkor sifatida tilga olinadi. Adibning ko'plab asarlarida inson va jamiyat munosabatlaridagi ziddiyat, ichki ruhiy konflikt, qahramon qalbidagi kurashlar, hissiyotlar to'qnashuvlar badiiy yoritib berilgan.

Ma'lumki, har qanday badiiy asarning tasvir obyektida inson shaxsi turadi. Insonga psixologik jihatdan yondashuv nihoyatda muhim sanaladi. Nazar Eshonqul adabiyot olamida nafaqat modernistik yo'nalishdagi asarlari bilan, shuningdek, badiiy ijod haqidagi qarashlari bilan ham alohida ahamiyatga ega adibdir. "Olam butun edi, keyin parchalandi, zarralarga bo'linib ketdi. Zarralarga bo'linish hamma fojeaning asosi bo'ldi. Dunyo ana shu parchalanishning uqubat va buhronlarini boshdan kechiryapti. Ijod esa zarralarni butunlikka tomon undaydi, yaxshilikka, birikishga boradigan yo'llarni ko'rsatadi, tahlil qiladi. Ana shu yaxlitlikka undashi bilan u yaratgan mahsulotlarning hammasi tarbiyaviydir". Adib ta'kidlaganidek, komil inson bo'lish uchun, inson eng avvalo, o'z ruhini tarbiyalamoq darkor, ruhni tarbiyalagan inson esa komil insondir.

Tanqidchi, tarjimashunos Ibrohim G'afurov adib haqida shunday fikr bildirdi: "Nazar Eshonqul mening nazarimda bizning o'zbek adabiyotida dunyo adabiyotlarining eng ilg'or oqimlari va usullarini chuqur o'rgangan va o'z asarlarida targ'ib qilgan". Olimning aytgan gaplaridan ko'rinib turibdiki, Nazar Eshonqul o'zining ko'plab asarlarida eng zamonaviy usullardan foydalangan, shuning uchun bu asarlar kitobxonning yuragidan joy olgan.

Xususan, professor Bahodir Xoliqov adib haqida shunday fikrlarni bildirgan: "Nazar Eshonqul asarlari orqali Yevropa, shuningdek, Lotin Amerikasi yozuvchilarining asarlarini ham to'g'ri tushunish, ularning asarlarini anglash, his etish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz". Ushbu berilgan fikrlardan anglashiladiki, Nazar Eshonqulning asarlarida jahon va o'zbek adabiyoti va san'ati namoyandalarining asarlari va shaxsiyatidagi mushtarakliklar, tahlillar, adabiy etyudlar jamlangan.

Nazar Eshonqulning ijodiga nazar soladigan bo'lsak "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tobut" kabi hikoyalari va "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romani

zamonaviy jahon adabiyoti hikoyalarini eslatadi. Nazar Eshonqulning asarlarida shunday umumiylik borki, bu larning nomlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Adibning asarlari haqida turli xil yondashuvlar mavjud. Xususan, adabiyotshunos olimi Nargiza Toirova adibning "Tobut" hikoyasi haqida shunday fikr bildirgan; "Tobut hikoyasi singari 90-yillarda o'zbek adabiyotida yaratilgan bir qator asarlarda mavhum bir jamiyat, tuzum, mafkuraning ramziy tasviriga duch kelamiz. Ulardagi qahramonlar ko'pincha notabiiy sharoitlarda, mavhum, sirli muhitda tasvirlanadi. Mana shu absurd olamni aks ettirish ortida, asosan, sobiq Ittifoq yoxud kommunistik tuzum davridagi insonlar va ularning ruhiy, ma'naviy olami nazarda tutilayotgani ilg'ab olish qiyin emas." [1] Ushbu berilgan fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, "Tobut" hikoyasida insonlarning ruhiy kechinmalari va ichki hissiyotlari rang-barang so'zlar orqali o'quvchiga yetkazib berilgan.

Ko'plab o'quvchilar Nazar Eshonqul asarlarini o'qigach, juda uzoq o'ylanishadi. Mohir adibning ijodida psixologizm ustunlik qilgani uchun ham u har bir kitobxonni o'zining sirli dunyosiga osongina asir qilib qo'ya oladi. Bu yo'sinda xotiraga singan taassurotlar esa tabiiyki, mutolaa qiluvchining shuuridan hech qachon butkul o'chib ketmaydi. Aksincha, vaqt o'tgani sari yurak-yurakka chuqurroq ildiz ota boradi va butun hayotimiz davomida bizga hamrohlik qilib, yo'limizni yoritadi. Bu ruhiyat satrlari orqali dard-u muhabbatlarimizni bir-birimizga yuqtirib, odam-u olamni yanada kengroq anglay boshlaymiz.

Nazar Eshonqulning inson ruhiyatini ochib bergan dastlabki ijodi "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi edi. Adibning mazkur asari o'zbek hikoyachiligida muhim yangilik bo'ldi. U jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortdi. Hikoyada adib bir insonning g'azab-nafratini ana shunday shamolga qiyoslaydi. Bunda bir ayolning matonati, sabri va qahri o'quvchilar e'tiborini tortadi. Har bir insonning ichki kechinmalari, ichki ruhiyati bo'lgani kabi Bayna momoning bukilmash iroda va e'tiqodini qalqon qilib kechirgan azobli umri haqidadir. Albatta, bu kabi ayollar ko'plab asarlarning bosh qahramonlaridir. Hikoya bir umr yig'ib-tergan va nafaqat o'zining, balki, butun boshli Tersota qishlog'ining ham asosiy ozig'i hisoblangan mollar podasini bosqinchi mirshablarga bermagani uchun otib tashlangan Rayim polvon va uning o'spirin o'g'lining ayanchli o'limi bilan boshlanadi. Turmush o'rtog'ining va yakka-yu yagona farzandining o'limidan so'ng Bayna momo umrini oxirigacha Zamon otboqardan va qishloqdoshlaridan nafratlarib o'tadi.

Bayna momoning nafratda o'tgan iztirobli umri har qanday inson qalbini junbushga keltiradi. U butun umr Zamon otboqarning qilmishi-yu, qishloqdoshlarining xiyonatini unutmaydi. Oradan 23 yil o'tib Bayna momo turmush o'rtog'i va o'g'li qasosini oladi. Zamon otboqarni u qirq yil kutgan farzandi dunyoga kelish arafasida o'ldiradi. Bu shamolning bo'ron bo'lishi edi, lekin Bayna momo qasosdan keyin ham qishloqdoshlarini kechirmaydi. Oradan bir yil o'tar-o'tmas bu ayolning uqubatli hayoti ham nihoyasiga yetadi. Bu hikoya ham hajman u qadar katta emas lekin, butun boshli bir oila qismatini o'ziga singdira olgan. Ko'rinadiki insonning ichki kechinmalari, ruhiyatiga yillar ham davo bo'lolmaydi, ichki nafrat va qasos 23 yil deganda yuzaga chiqdi. Lekin uni qishloqdoshlari hurmat bilan eslashgan. Masalan asarning quyidagi jumlasiga e'tibor qaratsak: "Bayna momo tirikligida, garchi bu ayolni, erining polvonlik lash-lushlari va kiyim-kechaklari yotgan, o'lgandan so'ng hech qachon yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan ana u hujra kabi qorong'i, musibat to'la uyi ichkarisiga kirmagan bo'lsa-da, ular qahr va g'azabni sitam bilan ichiga yutib kelgan bu kampirni hurmat bilan eslashardi".

Ushbu jumalardan ko'rinib turibdiki, Bayna momo eri va o'g'lining o'limidan so'ng ular birga yo'qotilganligiga ishora qiladi. Asarda ayol sadoqati, vafosi va sabri juda kuchli tarzda

tasvirlangan. O'quvchi bu hikoyadan o'sha davrdagi tuzumni, hayotni va insonning ruhiy-kechinmalarini tushuna boshlaydi.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev o'zining "Yirik shaxslar tasviri yo'lida" nomli maqolasida mazkur hikoyaning badiiy xususiyatlari haqida to'xtalib shunday yozadi: *"Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidagi Bayna momo milliy adabiyotimizda mutlaqo tasvir etilmagan obraz. Hikoya chinakam insonga, butun shaxsga bitilgan madhiyadir. Nomusli odamni, g'ururli insonni, chinakam shaxsni yengib bo'lmaydi. Uni qiynash, chalish, yiqitish, boringki, o'ldirish mumkin, lekin mag'lub qilish mumkin emas. Shaxsligi shakllanmagan yoxud sindirilgan kimsada g'urur bo'lmaydi. E.Fromm aytmoqchi: "...eng ulug' fazilat – itoatkorlik va eng katta gunoh – bo'ysunmaslikdir". Ushbu fikrlardan anglashiladiki, insonning o'zligini anglash va shaxsini shakllantirish juda katta matonat talab qiladi, shunday ekan, har bir mustaqil shaxs o'z fikri va o'z qarashlariga ega bo'lmog'i lozim.*

Xullas, haqiqiy san'at asari so'zning qudrati, uning jozibasi bilan dunyoga keladi. So'z ilohiy, unga xiyonat qilib bo'lmaydi. Yozuvchi Nazar Eshonqul yaratgan hikoyalarga voqealar talqini vajidan emas, so'zning salmog'i nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, adibning barcha hikoyalaridagi so'zlar o'quvchiga qahramon ayollarning turfa holatini, yashayotgan muhitini, kechinmalarini murakkab o'zgarish, tebranishlari bilan tasavvur etishga imkon beradi. Adibning ko'plab asarlarida psixologizmning o'rni salmoqli bo'lib, unda insonlarni manipulyatsiya qilish, shaxs ongining eng sirli, nozik nuqtalarinida nazorat qilishga intilish hamda insonni "oqni – qora; qorani-oq" kabi tushunchaga ishontirish manzarasida ruhiy ta'sirning kuchli ekanligini guvohi bo'lamiz. Shunday ekan, haqiqiy badiiy asardagi obraz hayotning, inson ruhiyatining eng murakkab va chigal tomonlarini mohirona aks ettira olish bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Quronov D Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018
2. Eshonqul N. Yalpiz hidi: Qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2008. 398-bet.
3. Hozirgi adabiy jarayon masalalari. – Toshkent, 2022
4. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. Jild.1. –T.: Fan, 2001. -416 bet.
5. Nazar Eshonqul. Ufq ortidagi quyosh. Qissalar. Momoqo'shiq. To'plam. –T.: "Sharq", 2008.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
7. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent, "Fan", 2007. 63-bet.
8. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006. 62-bet.
9. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyollar. – T., "Ma'naviyat", 2000.
10. Nazar Eshonqul "Momoqo'shiq" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi. – Toshkent, 2019.
11. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T.: «O'zbekiston», 20-bet.
12. Rasulov A. Badiiylik- bezavol yangilik. – Toshkent. Sharq, 2007. 336 bet.
13. Yo'ldosh Q. Yoniq so'z. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006. 546-bet.
14. <https://tafakkur.net/ayol/abdulla-oripov.uz>
15. <https://kun.uz/uz/news/2019/03/30/camimiyat-va-ozaro-yaxlitlikning-yoqligi-eng-katta-muammomiz>